



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MUSTAQILLIKDAN KEYINGI IJTIMOYIY-IQTISODIY VA SIYOSIY VAZIYAT

---

*Abdurahmonova Muslima Fazlitdin qizi*  
*O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti*  
*E-mail: [abdurakhmonovamuslimakhon@gmail.com](mailto:abdurakhmonovamuslimakhon@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston mustaqillikka erishganidan boshlab amalga oshirilayotgan keng islohotlar va ularning natijasi yoritib berilgan. Bundan tashqari, davlatimizda barcha yosh toifalari uchun berilgan imkoniyatlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Mustaqillik, yoshlar siyosati, davlat dasturlari, imkoniyatlar, oliygohlar, ijtimoiy dastur, harbiy soha, sport.

Bu dunyoda yashayotgan har bir inson o'z tug'ilib o'sgan yurtini ona vatani deb hisoblaydi, uni chin yurakdan sevadi va dovrug'i butun dunyoga taralashi uchun o'z hissasini qo'shishni istaydi. Yoshi kichik bolalarning kelajakda kim bo'lmoqchi ekanligi haqidagi savollarga turli kasblarni aytib javob berishlarining o'zi ham Vatan uchun xizmat qilishni istashlarining yaqqol misoli emasmi?

Yer yuzidagi barcha davlatlarda ham bo'lavermaydigan va shu yurt hamda uning xalqi uchun eng muhim narsa hisoblangan mustaqillik bundan 32 yil muqaddam yurtimizda qaror topdi. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov tashabbuslari bilan yurtimiz to'laqonli mustaqil, shu bilan birgalikda o'zining ichki va tashqi siyosatini amalga oshirishda boshqa davlatlarga qaram bo'lmaydigan Respublika, deb e'lon qilindi. Mustaqillik nafaqat yurtimiz rivoji, balki o'sib kelayotgan yosh avlodlarning nurli kelajaklari uchun ham asosiy poydevor bo'lib xizmat qildi. O'zbekiston sekin-astalik bilan jahon tan olgan siyosiy va iqtisodiy mustaqil davlatlar qatoridan joy oldi. Mustaqilligimizdan so'ng davlatimiz uchun muhim bo'lgan bir necha qonunlar qabul qilinishi, xususan, yoshlar siyosatiga alohida urg'u berilishi orqali bugungi kunda yurtimizning obro'sini turli jabhalar bo'yicha butun dunyoda himoya qilayotgan yoshlarning hozirgi yutuqlari uchun asosiy omil bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng fuqarolarning ijtimoiy huquq va erkinliklarini ta'minlash uchun qator islohotlarni o'tkazdi. Maktabgacha va maktab ta'limi qamrovi kengaytirilib, umumiy-o'rta ta'lim bepul bo'lishi yo'lga qo'yildi. Davlat tasarrufidagi oliy ta'lim beruvchi oliygohlar ko'paytirildi. Birgina



1992-yilda 5 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Yoshlarga sifatli ta'lim berish hamda chet el tajribalaridan foydalangan holda ularning malakasini oshirish maqsadida jahonning taniqli ta'lim dargohlari, xususan, Vestminster universiteti, Turin politexnika universiteti, Singapur menejmentni rivojlantirish instituti filiallari Toshkent shahrida o'z faoliyatini yo'lga qo'ydi. Natijada, yoshlar nafaqat O'zbekiston, balki chet davlatlarining yetakchi mutaxassislaridan saboq olish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Ularning to'plagan tajribalari natijasida hozirgi kungacha yurtimizda istiqbolli loyihalar amalga oshirilib kelinmoqda.

Yurtimiz imkoniyat eshiklarini nafaqat yoshlar, balki o'rta va katta yoshlilar uchun ham birdek keng ochib kelmoqda. Har yili yurtimizda yangi yilning nomlanishi va unga doir davlat dasturlari ishlab chiqilib, ushbu dasturlarda davlatimizning har qanday yosh toifasidagi fuqarolari uchun qulayliklar yaratilishi yo'lga qo'yilgan. Bunga birgina yaqqol misol, 2015-yilning "Keksalarni e'zozlash yili" deya e'lon qilinganini ko'rishimiz mumkin. Ushbu yilda davlat dasturiga, asosan, keksalarning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish, yoshi ulug' insonlar, ayniqsa, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylariga ijtimoiy, pensiya ta'minoti va tibbiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish vazifalari kiritilib, ushbu vazifalarni amalga oshirishga e'tibor qaratildi. Bundan tashqari, davlatimizda onalar va bolalar salomatligi siyosat darajasida ko'rib, ularning sog'lom hayot kechirishlari uchun tibbiy va ijtimoiy ko'maklar berib kelinmoqda. Xususan, tug'ilmagan bolalardagi turli kasalliklarni erta aniqlash va oldini olsih uchun skrining xizmatlari hamda yosh bolalarni turli o'tkir kasalliklarga qarshi davlat tomonidan bepul emlash yo'lga qo'yilgan. Ushbu qilinayotgan sa'y-harakatlar natijasi o'laroq, O'zbekistonda tug'ilgan bolalarning 92 foizi mutlaq sog'lom ekanligi Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti tomonidan tasdiqlangan. Mamlakatimizda yosh hamda voyaga yetmagan farzandlari mavjud bo'lgan oilalar uchun turli xil moddiy yordamlar ajratilib, ularning ehtiyojlari uchun sarf qilishga yo'naltirilishi ko'plab ota-onalar uchun ayni muddao bo'lmoqda.

Bir davlatni sportchalik hech narsa butun dunyoga mashhur qila olmaydi. O'zbekistonda ham ayni shu g'oyani ilgari surgan holda sportni rivojlantirishga kuchli e'tibor qaratib kelinmoqda. Jumladan, sportning hamma turlari bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etilgan bo'lib, nafaqat poytaxtimiz Toshkent shahri, qolaversa, qolgan 12 viloyat hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida ham yosh sportchilarni tarbiyalash maqsadida sport maktablari, olimpiya zaxiralari kolleji hamda jismoniy tarbiya va sportga ixtisoslashgan oliy ta'lim dargohlari faoliyat olib bormoqda.



Amalga oshirilgan bunday keng ko'lamli islohotlar natijasida yurtimizning dovrug'ini butun dunyoga taratayotgan sportchilarimiz jahon miqyosidagi nufuzli musobaqalarda zafar quchib, bayrog'imizni ko'kka ko'tarmoqdalar. Sportchilarimizdan nafaqat ota-onalari va yaqinlari, balki butun xalqimiz faxrlanib, ularning ismini g'urur bilan tilga olmoqda.

Vatanni qo'riqlashdek sharaflı kasb egasi bo'lish barcha uchun ham nasib etmaydi. Faqatgina yuragida vatanga bo'lgan muhabbat va sadoqati jo'sh urib turgan mard yigit-qizlarga ushbu faxrli kasbning mohir ustalari bo'la oladilar. Vatanimiz uning tinchligini saqlash yo'lida hech narsadan qaytmaydigan yoshlar uchun maxsus harbiy o'quv yurtlarida ta'lim olish imkoniyatini taqdim etgan bo'lib, faqatgina yigitlar emas, balki qizlar uchun ham ushbu sohaga o'zlarining bebaho hissalarini qo'shishlari uchun sharoitlar yaratib kelmoqda. Harbiylar hamda ularning oila a'zolari uchun yurtimizda barcha imkoniyatlar yaratilgan. Xususan, xizmat ado etilayotgan hududdan bepul turar-joy ajratilishi, ularning farzandlari ta'lim olishlari uchun davlat hisobidan grant hamda kvotalar ajratilishi buning isbotidir. Yurtimiz uning tinchligi yo'lida jonini fido etgan bahodirlarni ham aslo unutmaydi. Ularning yorqin xotiralari abadiylashtirilib, oilalari uchun moddiy va ma'naviy ko'mak berib kelinadi.

**Xulosa:** Xulosa o'rnida aytish lozimki, O'zbekiston o'z fuqarolari uchun barcha imkoniyat eshiklarini ochib, ularning yorqin kelajakka ega bo'lishlari uchun qator islohotlarni o'tkazib kelmoqda. Istalgan ish va o'qish joyini tanlash huquqi, diniy va dunyoviy ta'lim olish hamda ijtimoiy va iqtisodiy tomondan yuksalish uchun yurtimizda barcha sharoitlar yaratilmoqda. O'zbekiston eng tinch va barqaror respublika sifatida dunyo tan olgan mamlakatlar qatoridan joy olishga muvaffaq bo'ldi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Jo'rayev.N, Zamonov.A "O'zbekiston tarixi (Mustaqillik davri)". T.: O'zbekiston, 2017
2. Karimov I.A "O'zbekiston-kelajagi buyuk davlat". T.: O'zbekiston, 1992